

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2024
3-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal

ISSN 2181-8274





*Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.
1996-yilda tashkil etilgan.*

Tahrir hay'ati raisi:

M.Boltabayev

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi direktori

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari:

M.Esanov

Bosh muharrir:

A.Sabriyev

Tahrir hay'ati a'zolari:

L.Abduxalilova

L.Zaripov

C.Xudoyberdiyeva

R.Jo'raqulov

M.Aripov

B.Zaripov

U.Djumaniyazov

T.Axmedov

Dizayner:

S.Musamedov

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

Sitorabonu Murodova

“Fenol va uning hosilalari” mavzusini o'qitishda zamonaviy kimyoviy dasturlardan foydalanib o'rganish 5

Амангелди Отарбаев

Методика формирования интереса школьников к физике 8

Gulchexra Tursunova

A1+ darajasidagi o'quvchining “Qo'l javob kartalari” orqali tinglash qobiliyatini rivojlantirish 11

Zafar Arslonov

Yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish: Namangan viloyati misolida 15

Саида Закирова

Народный танец и его роль в хореографическом образовании 18

Alisher Aloxunov

Mustaqillikning dastlabki yillarida Markaziy Osiyo davlatlari ta'lim tizimining isloh qilinishi masalasiga doir 21

Shirin Shomurotova

Ta'lim vositalari yordamida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish 25

Мукаддас Ахмедова

Теоретические основы интерактивных методов обучения 28

Umurbek Qushmurotov, Sunnatillo Ikromov

Ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamaning mexanikaga ba'zi bir tatbiqi 32

Наима Хаитбаева, Феруза Хашимова

Взаимодействие русского языка в новых информационных технологий 35

Mavjuda Burhanova

Oila turlarining bolaning intellektual hamda shaxs sifatida rivojlanishiga ta'siri 39

Меҳрибану Серимбетова

Интеграция физики и агрометеорологии через современные технологии 43

Aziza Suvankulova

The role of artificial intelligence in foreign language education: a revolution in language education 46

Halima Shukurova, Mohinur Xamzayeva

Finlandiya ta'limoti O'zbekistonda 50

Хабибилла Каримов

Баскетбол ўйин тактикасини такомиллаштириш методлари 53

Shoxsanam Turapova

Ta'lim muassasasining ta'lim jarayonida talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish modeli 56

Dilshoda Saparniyazova

Phraseological units reflecting social and cultural reality in English and Karakalpak languages 59

Oynisa Rashidova

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning zamonaviy shakllari 61

Ug'ilxon Mamajanova

Oliy ta'limda kimyo fani tarmoqlarini o'qitishda pedagogik metodlardan foydalanish samarasi 65

Uktabar Samadova, Iroda Matmurotova, Adibaxon O'rozboyeva

Talabalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etishning zamonaviy yondashuvi 68

Sherqo'zi Raxmatov

Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali sof energiya manbalariga ega bo'lish 71

Dilnavoz Kamalova

Fizika va astronomiya darslarini o'tishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning ahamiyati 75

Шахло Ходжакулова

Основные понятия научной терминологии 78



OILA TURLARINING BOLANING INTELLEKTUAL HAMDA SHAXS SIFATIDA RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Mavjuda Burxanova,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti "Psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada oilalarning turlari, xususan, yakka va ko'p farzandli oilalar, oilaviy muhit xususiyatlari, oilalardagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bolalarning shaxslararo munosabatlarni idrok etishi jarayonlariga ta'sirikabi masalalar tahlil qilingan. Maqolada ilmiy bilishning suhbat, kuzatish, eksperiment metodlari, o'zini-o'zi baholash metodikasi (Сосновский модификацияси), matematik statistik usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijasida erishilgan ilmiy xulosa va tavsiyalardan monografiya, dastur, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni nashr qilishda, shuningdek, psixodiagnostika, oila psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya fanlaridan o'quv-uslubiy majmualarini tayyorlashda qo'shimcha material sifatida qo'llash mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: oila, oila turlari, yakka va ko'p farzandli oilalar, oilaviy muhit, kognitiv xususiyatlari, ota-ona, bolalar, diqqat-e'tibor, mehr-muhabbat, ijtimoiylashuv.

Аннотация

В статье анализируются такие вопросы, как типы семей, в частности неполные и многодетные семьи, особенности семейной среды, влияние социально-психологических особенностей семьи на процессы восприятия детьми межличностных отношений. Кроме того, в статье используются методы интервью, наблюдения, эксперимента научного познания, метод самооценки (модификация Сосновского), методы математической статистики. Научные выводы и рекомендации, полученные в результате исследования, могут быть использованы в качестве дополнительного материала при издании монографий, программ, учебно-методических пособий, а также при составлении учебно-методических комплексов по дисциплинам психодиагностика, семейная психология и социальная психология.

Ключевые слова: семья, типы семей, одиночные и многодетные семьи, семейная среда, когнитивные характеристики, родители, дети, внимание, привязанность, социализация.

Annotation

The article analyzes such issues as types of families, in particular single-parent and large families, features of the family environment, the influence of the socio-psychological characteristics of the family on the processes of children's perception of interpersonal relationships. In addition, the article uses methods of interviews, observation, scientific knowledge experiments, the self-assessment method (Sosnovsky modification), and methods of mathematical statistics. Scientific conclusions and recommendations obtained as a result of the study can be used as additional material in the publication of monographs, programs, teaching aids, as well as in the compilation of educational and methodological complexes in the disciplines of psychodiagnostics, family psychology and social psychology.

Keywords: family, family types, single and large families, family environment, cognitive characteristics, parents, children, attention, affection, socialization.

Ko'p farzandli hamda yakka farzandli oila bolalari, tug'ilish ketma-ketligi har biridan o'zining shaxs xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ko'pgina tadqiqotchilarning qayd etishicha, oila a'zolarining miqdori yoki oilaning katta-kichikligi, bolalarning tug'ilish ketma-ketligi ularning shaxs xususiyatlarini belgilab beruvchi muhim omildir. Xususan, A.Adlerning o'zi oilada farzandlarning tug'ilish tartibi ularning psixologik xususiyatlarini belgilab berishini ta'kidlagan. "Aynan tug'ilish tartibi uningcha, bolaning butun hayoti davomida unga ta'sir etuvchi shaxs ustanovkalarining asosiy determinantasi hisoblanadi" [1, 148]. Adlerning mulohazasiga ko'ra, oiladagi munosabatlar tizimi, axloqiy-psixologik muhiti yangi farzand dunyoga kelishi bilan o'zgarib boradi. Biroq bolaning tug'ilish tartibi uning rivojlanishida absolyut emas, muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda bolaning subyektiv munosabati zarur: u o'zining oiladagi o'rnini qanday qabul qiladi, uni o'zgartirish uchun qabul qilish yoki rad etish uchun qanday xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Aynan mazkur yondashuvdagina bolaning shaxs xususiyatlari to'liqroq namoyon bo'ladi.

Maqolaning metodologik asosi sifatida tarixiylik tamo-yili, ilmiylik, psixika va faoliyat birligi, obyektivlik metodlari tashkil etadi. Ko'p farzandli oila farzandlari autizm, nevrozlar, qo'rquvlar, nosog'lom egosentrizm, o'z shaxsiga ortiqcha diqqatlilik kabilarga duchor bo'lmaydilar. Lekin shu bilan birga, ko'p farzandlilik oila farzandlarining psixik salomatligiga ta'sir omili bo'lib xizmat qilishi ehtimol. Farzandlarning shaxs sifatida kamol topishiga negativ ta'sir etuvchi bolalar o'rtasidagi raqobat, salbiy shaxslararo munosabatlari rivojlanishi mumkin.

Yakka farzandlar oiladagi bor diqqat-e'tibor markazida bo'ladilar, ularga ham vaqt, ham moddiy manbalar ko'proq sarflanadi, oqibatda ularning shaxs sifatida va qobiliyatlarini rivojlantirishga imkoniyatlar yuqoriroq ko'rsatkichni tashkil etadi.

Tadqiqotlarda qayd etishlaricha, kognitiv sohaning muvaffaqiyatli rivojlanishi yoki noto'liqligi qator omillar bilan shartlangan. Eng nojo'ya ta'sir oilaning kattaligi, oxirgi tartibda tug'ilgan farzandlar, farzandlar orasidagi tug'ilishi intervalining kichikligi, oilaning quyi ijtimoiy-iqtisodiy statusi, past intellekt hamda ma'lumot darajasi, shuningdek, bolani qabul qilmaslik, bolaga nisbatan avtoritarizm mavjudligida kuzatiladi. Ko'p farzandli va yakka farzandli bolalarning intellektual tafovutlari hamda bir oila farzandlaridagi o'xshashlik verbal intellekt sohasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Bolalarning kognitiv xususiyatlari quyidagi tadqiqotchilar A. Anastasy, T.N.Andreyeva, L.L.Balandina, J.S.Djandosova, T.A. Dumitrashku [2], A.Adler, S.Jiao, R.Narchal [3], L.Belmont, F. Marola, R.Stofer, T.N.Trefilova, E.A.Silina, M.Wagnerl va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Bu olimlarning tadqiqotlarida, oila turi va tarkibi bolalarning shaxs va xulqiy xususiyatlariga ta'siri, oila tarkibi (turi) hamda farzandlarning tug'ilish

tartibi, yakka farzandga oilaning barcha diqqat-e'tibori, mehr-muhabbati yo'naltirilish, ularga ko'p va vaqt va moddiy manbalar sarf etilish kabi masalalari qamrab olinadi [4].

O'zbekistonda ko'p farzandli va yakka farzandli oilalar farzandlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, oilaviy muhit, xususiyatlarini bolalarning shaxslararo munosabatlarni idrok etish kabi masalalarda G'.Shoumarov, E.G'oziyev, V.Karimova, G.Yadgarova, A.Kadirova, G.Kurbanova, M.Umarova kabi olimlarni tadqiqotlarida e'tibor qaratiladi.

Umuman olganda, aka-uka va opa-singillari bor bolalar tirishqoq, quyi egosentrik yo'nalganlikka ega, mulohazali, mas'uliyatli, xayrixoh, o'ziga unchalik ishonmaydigan, o'zini o'zi quyi-roq baholaydigan, boshqa bolalar bilan hamkorlik qila oladigan, ota-onalarini ko'proq hurmat qiladigan bo'ladilar.

Yakka farzandlar esa faolroq, beparvo, o'ziga ishongan, mustaqil, erkin, xudbin, o'zini o'zi yuqoriroq baholaydilar.

Tadqiqotchilarning qayd etishlaricha, "ko'p farzandli oila tarbiyalanuvchilari kam egiluvchan, noaniq sharoitlarda mo'ljal olishga qiynaladilar, mustaqillikka qaraganda konformizm namoyish etadilar" [5, 1243]. Ularda bezovtalik va arazchanlik xos bo'lib, ularni qo'llab-quvvatlashlarida, ma'qullashlarida katta ehtiyoj sezadilar, shuningdek, ularda tashkilotchilik va liderlik qobiliyatlari yuqoriroq ko'rsatkichga ega.

Ko'p farzandli oila tarbiyalanuvchilarida quyidagilar kuzatiladi:

1. Jamoaviy ong.
2. Menining noaniqligi, ko'proq Bizining yaqqolligi.
3. Konformizm, o'z-galar fikriga monandlik.
4. Ularni payqamaslik va qadrlamaslik arazlashlariga sabab bo'ladi.
5. Ma'qullashga o'ta katta ehtiyoj.
6. Noaniq sharoitda mo'ljal ola olmaslik.
7. Gumondorlik.
8. Delikventlikka moyillik.

Rossiyalik psixolog-olim L.L.Balandina tadqiqotlarida ko'p farzandli oila tarbiyalanuvchilarining quyidagi kognitiv xususiyatlarini aniqlashga muvaffaq bo'lgan. "Asosan ko'p farzandli oila farzandlarida quyi intellekt darajasi aniqlangan. Ammo bu qonuniyat faqat kichik maktab yoshiga xos – ko'p farzandli oilalarning ikkinchi sinf o'quvchilari yakka farzandlardan ham verbal, ham noverbal intellektida quyi-roq ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. Verbal intellektidagi ustunlik maktabning yakunigacha yakka farzandlarda yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. Noverbal intellekt esa yuqori sinfga kelib ko'p farzandli oila farzandlarida yuqorilashadi" [6, 97].

Maktab fanlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichidagi tafovutlar faqat kichik maktab yoshida kuzatiladi. Ikkinchi sinf yakka farzandlarida asosiy fanlar (ona tili, matematika, o'qish)dan katta oila farzandlariga qaraganda

yuqoriroq o'zlashtirish darajasi qayd etiladi. O'smirlik va o'spirinlik davrida o'quvchilarning o'zlashtirishi bo'yicha ahamiyatli farqlar kuzatilmaydi. Garchi ko'p farzandli o'spirinlarning yuqori sinfdagi o'zlashtirish darajasi sinfning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichidan yuqori natijalarni, yakka farzandlarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari esa sinfning o'rtachasiga yetmaydi.

Yakka farzandli oilalarda bolalar individuallashadi, ota-onalariga bog'lanib qoladilar. Psixolog va sosiologlarning qayd etishicha, yakka farzandlarga mas'uliyatsizlik, yalqovlik, irodaviylik, odamlar bilan shaxslararo munosabatlarni saqlab tura olmaslik xosdir. Yakka farzand rivojlanishining o'zi xos xususiyatlarini tavsiflar ekan, G.T.Xomentskas yakka farzandlarning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi. "Uzoq vaqt davomida yakka farzand faqat kattalar bilan muloqotda bo'ladi, bu esa unda zaiflik va noto'kislik hissini shakllantiradi, egosentrizmning vujudga kelishiga xizmat qiladi – bola atrofda-gilarning diqqat-e'tiborini suiste'mol qiladi, ularni turli manipulyativ usullar bilan boshqarishga harakat qiladi. Bolalar bilan muomala tajribasining yetishmasligi yakka farzandning shaxsiy tajribasini cheklab qo'yadi. O'zini boshqa bolalar bilan solishtirish imkoniyati yo'qligi sababli yakka farzandlar o'zlarini noyob, qadrlil deb hisoblay boshlaydilar, natijada bu noadekvat o'zini o'zi baholashga olib keladi. Tengqurlari bilan muomalaning yetishmasligi boshqa bolalar bilan faol munosabatlarga kirishishga sabab bo'ladi" [7, 154].

Tadqiqotchi A.Adler fikricha, "yakka farzandning pozitsiyasi unikal bo'lib, uning raqobatdosh aka-ukasi yoki opa-singlisi yo'q. Bu vaziyat hamda ona mehriga ta'sirchanlik otasi bilan kuchli raqobatga sabab bo'ladi. Yakka farzand uzoq vaqt davomida onasining nazorati ostida bo'lganligi sababli o'zga kishilardan ham xuddi shu singari mehr-muhabbat va himoya istaydi. Bunday bolalarning asosiy xususiyati bog'liqlik va egosentrizm hisoblanadi" [1, 149].

Biroq kechroq yakka farzandlar tetiklashib o'zlarining diqqat markazida emasliklarini his etadilar. Yakka farzandlar hech qachon hech kim bilan diqqat markazini bo'lishmagan, bu pozitsiya uchun uka-singlisi bilan kurashmagan. Natijada ularda ko'pincha tengdoshlari bilan munosabatda qiyinchiliklar kuzatiladi. U ko'pincha cho'zilib ketgan infantilizmni namoyish etadi, sababi uning ota-onalari yakka farzandlarini hali-hanuz bola deb idrok etadilar. Shuning bilan birga, ularda erta ulg'ayish belgilari ko'zga tashlanadi (chunki ko'p vaqtini katta yoshlardagi insonlar bilan o'tkazadi, ularning suhbatlari va fikr-mulohazalarining guvohiga aylanadi).

Ota-onalarning yakka farzandlarga haddan ziyod diqqat-e'tibor qaratishlari ularning psixik rivojlanishini to'xtatib qolishi mumkin. Ota-onalarning yakka farzandga nisbatan ortiqcha rioyagarchiligi (marhamatlilik) tufayli u oiladan tashqari muhitda ko'plab ko'ngil qolishlarga, muammolarga yuz tutadi, chunki o'zga insonlardan

ota-onasi kabi diqqat-e'tibor va mehr-muhabbatni kutadi. Xuddi shu sabab tufayli yakka farzand o'ziga nisbatan juda jiddiy yondasha boshlaydi. "Yakka farzandning dunyoqarashi torroqligi uchun ayrim arzimagan narsalar ham unga katta va ahamiyatli bo'lib tuyuladi. Natijada shaxslararo munosabatlar boshqa bolalarga nisbatan unda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Yakka farzandlar ota-ona mehrini uka-singlisi bilan hech qachon bo'lishmagan, o'yinchoqlar, xona, kiyim va boshqa narsalar u yoqda tursin. Shuning uchun ular bolalar bilan umumiy til topishga, bolalar jamoasida o'z o'rmini topishga qiynaladilar" [8, 62].

Yakka farzandlar o'zining yuqori bezovtalik darajasi bilan ajralib turadilar. Ular egosentrik va tobe hisoblana-dilar. Bir farzandli oilalarda bolalar individuallashadilar, biroq ular ota-onasiga kuchli bog'lanib qoladilar. Psixolog va sosiologlarning qayd etishlaricha, yakka farzandlarda yalqovlik, mas'uliyatsizlik, irodasizlik, shaxslararo munosabatlarni o'rnatish va saqlab tura olmaslik kabi xususiyatlar kuzatiladi. Yakka farzandga oilaning barcha diqqat-e'tibori, mehr-muhabbati yo'naltiriladi, unga ko'p vaqt va moddiy manbalar sarf etiladi, shuning uchun yakka farzandlarning o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga imkoniyatlari yuqoriroq bo'ladi.

Tadqiqotlarning T.N.Andreyevaning ta'kidlashicha, "yakka farzandlarning shaxs kuchi (egosi) quyiroq ko'rsatkichga ega. Bu voqelik ularning oilada o'z mavqeyi uchun kurashga jalb etilmaganligi bilan izohlanishi mumkin. Katta yoshdagi va o'smir yoshdagi yakka farzandlarda ipoxondrik reaksiyalar va isteriklik kuzatiladi" [9, 144].

Bunday insonlarda shaxslararo munosabatlarda yuqori dominantlik aniqlangan. Yakka farzandlarda, xoh voyaga yetgan, xoh o'smir bo'lsin, o'z shaxsini ustun qo'yish, o'zinikini o'tkazish yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, ular beparvo, beg'am, shaxslararo munosabatlar ularni kam xavotirga soladi. Ularning emotsional olami tabiiyroq va ochiqroqdir. Yakka farzandlarning axloqiy normativligi ko'p farzandli oila tarbiyalanuvchilariga qaraganda quyiroq natijaga ega. Ular asosan axloqiy me'yorlarga qaraganda empatik munosabatlarga asoslanadilar. Xuddi shu tendensiya ularning ota-onasiga xos, sababi yakka farzandlardagi egoizmni nafaqat ularda uka-singilning yo'qligi bilan, balki oiladagi umumiy muhit bilan bog'lash darkor.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi fundamental psixologik xususiyatlardan quyi axloqiy normativlik, faoliyatda individual uslubga moyillik, tabiiylik, ochiqlik va hokazolar, kamol topish davrida esa o'z emotsional reaksiyalarini o'zi nazorat qilish kelib chiqadi.

Natijada:

1. Ko'p farzandli oilalarda uning a'zolari bir-biri bilan nihoyatda ahil muomalada bo'ladilar, bu esa o'z manfaatlariga erishishda aka-uka, opa-singillarining haq-huquqlari va manfaatlarini qurbon qilish, cheklash orqali niqoblanishi mumkin.

2. Yakka farzandlar esa bu ko'nikmani uzoq yillar davomida o'zlashtiradilar, shuning uchun ham ularga xos bo'lgan egoizm nisbatan ochiqroq bo'ladi. Ularning qalbi nozikroq, yumshoqroq, empatikroq bo'lib, muomala va shaxslararo munosabatda ular tez ishonuvchandir. O'zlarining xolisligi va emosionalliklari tufayli jamiyatda o'z emotsiyalarini, hissiy reaksiyalarini doimo nazorat qilishlari talab etiladi.

3. Yakka farzandlar kam konservativ bo'lib, qaror qabul qilishda radikalroq hisoblanadilar. Ularda o'zgarishlar dinamik ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Yuqoridagi xususiyatlar ularda umrining oxiriga qadar mavjud bo'lishi ehtimol. Bular bolalik va o'smirlik chog'idagi emotsional yopiqlik bilan izohlanishi zarur.

4. Yakka farzandlar mustaqil, an'ana va udumlarga bog'lanib qolmagan, guruh fikriga tobe bo'lmagan, konform emas, shaxslararo munosabatlarda individual uslub sohiblari bo'lib, atrof va vaziyatni individual burchak ostida idrok etadilar. Yakka farzandlarda boshqalarga moslashish ehtiyoji yo'q (o'quv faoliyati jamoaviy emas, ko'proq individual faoliyat turidir).

5. Aka-uka, opa-singillari bor ko'p farzandli oila farzandlari tirishqoq, unchalik egosentrik emas, boshqa bolalar bilan hamkorlik qilishga tayyor, ota-onalarini hurmat qiladilar. Ularda intellektual xususiyatlar xarakterologik xususiyatlarga qaraganda ustunlik qiladi. Empatik, do'stona va yaqin shaxslararo munosabatlar o'rnatishga ehtiyoj faollashadi. O'z emotsional olamining shakllanishida tabiiylik kuzatiladi.

Shunday qilib, oilaning turi: yakka va ko'p farzandli oilalar ota-onalikka, oilaviy muhit xususiyatlarini belgilab berishi bilan birga, bolalarning intellektual va shaxs rivojlanishiga ta'sir etadi. Har ikkala turdagi oilalar bolaning rivojlanishiga har xil (ijobiy va salbiy) ta'sir etadi.

Yuqoridagi ma'lumotlarni inobatga olish va tatbiq etish oila tarbiyasidagi deviatziyalarning profilaktikasida qo'llanilishi mumkin. Xullas, ko'p farzandli oilalar hamda yakka farzandli oilalarning ichki oilaviy munosabatlari bolalarning psixologik xususiyatlarini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYORLAR:

1. Адлер А. Воспитание детей. Взаимодействие полов / Пер с англ. А.А. Валеева и Р.А. Валеевой. – Ростов н/Д: Феникс, 1998. – 448 с.
2. Думитрашку Т.А. Структура семьи и когнитивное развитие детей // Вопросы психологии. – 1996. – № 2. – С. 104-112.
3. Narchal R. Family size and its effect on personality and adjustment // J. of Psychol. Res. – 1986. – № 30(3). – P. 156-160.
4. Wagner M. Family size effects: a review / M. Wagner, H. Schubert // J. of Genetic Psychol. – 1985. – № 146 (1). – P. 65-78.
5. Силина Е. А. Личностные особенности детей из многодетных и однодетных семей // Фундаментальные исследования. – 2013. – №. 8-5. – С. 1243-1246.
6. Баландина Л.Л. Особенности индивидуальности ребенка в зависимости от конфигурации семьи: дис. ... канд. психол. наук // Пермь, 2003. – 197с.
7. Хоментаскас, Г. Т. Семья глазами ребенка / Г.Т. Хоментаскас. – М.: Рама Паблишинг, 2010. – 240 с.
8. Баранова, Э.А. Введение в детскую психологию: учеб. пособие для вузов / Э.А. Баранова. – СПб.: Питер, 2010. – 176.
9. Андреева, Т.В. Семейная психология: учеб. пособие для вузов / Т.В. Андреева. – СПб: Речь, 2004. – 244 с.

